

Yulduzxon MAHMUDOVA,
Toshkent moliya instituti Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi
E-mail: mahmudovaulduz706@gmail.com
Tel.: 93-210-37-57

TMI "Bank ishi" kafedrasi PhD. Maqsudov Bunyod taqrizi asosida

“THE LITERARY BRIDGE OF ABDULLAH QAHHAR: ABOUT THE ACTIVITIES OF THE CRITIC, OBSTACLES AND HIS ROLE IN IMPROVING STORIES”

Annotation

This article is an in-depth study of Abdullah Qahhar's work in the field of criticism, focusing on his role in improving works despite the obstacles he faces for speaking truthfully about the situation of his time. The article details Abdullah Qahhar's contributions to literary analysis, emphasizing his influence on improving and enhancing the quality of storytelling in a cultural context both in his time and to this day, as his sayings are an example to be followed by many writers of the present time. Through his critical acumen, Qahhar becomes a key figure in shaping and elevating the narrative landscape, ultimately contributing to a deeper understanding of literature.

Key words: Rare talent, literary critical activity, brave guardian of literature, significant works and research, writer's memory, criteria of aesthetic thinking, the highest goal of poetry, schematism and stereotypes.

“ABDULLA QAHHOR ADABIY KO‘PRIGI: MUNAQCID FAOLIYATI, TO‘SIQLAR VA UNING HIKOYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O‘RNI HAQIDA”

Annotasiya

Bu maqolada Abdulla Qahhorning tanqid sohasidagi ijodi chuqur o‘rganilib, o‘z davrining holatini rost gapirish yo‘lida duch keladigan to‘siqlarga qaramay, uning asarlarini takomillashtirishdagi o‘rni haqida so‘z olib boradi. Maqolada Abdulla Qahhorning adabiy tahvilga qo‘sishgan hissasi batafsil bayon etilgan bo‘lib, uning o‘z davrida ham, bugungi kungacha ham madaniy kontekstda hikoya qilish sifatini yaxshilash va yuksaltirishga ta’siri alohida ta‘kidlanadi, chunki uning so‘zlari hozirgi zamonning ko‘plab adiblariga o‘rnak bo‘lishi kerak. Qahhor o‘zining tanqidiy ziyrakligi orqali hikoya manzarasini shakllantirish va yuksaltirishda asosiy shaxsga aylanadi va adabiyotni chuqurroq tushunishga yordam beradi..

Kalit so‘zlar: Nodir iste’dod, adabiy-tanqidiy faoliyat, adabiyotning jasur posboni, salmoqli asarlar, tadqiq etish, adib xotirasи, estetik tafakkur mezonlari, abiyotning oliy maqsadi, sxematizm va qolipbozlik.

«ЛИТЕРАТУРНЫЙ МОСТ АБДУЛЛЫ КАХХАРА: ПРО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КРИТИКА, ПРЕПЯТСТВИЯ ТАКЖЕ ЕГО РОЛЬ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ РАССКАЗОВ»

Аннотация

Данная статья представляет собой глубокое исследование деятельности Абдуллы Каххара в сфере критики, уделяя особое внимание его роли в улучшении произведений, несмотря на препятствия, с которыми он сталкивается из-за правдивой речи о ситуации того времени. Статья подробно описывает вклад Абдуллы Каххара в литературный анализ, подчеркивая его влияние на совершенствование и повышение качества повествования в культурном контексте как в своё время, так и до сих пор, так как его изречения являются примером для подражания многих писателей нынешнего времени. Благодаря своей критической проницательности Каххар становится ключевой фигурой в формировании и возвышении повествовательного ландшафта, что в конечном итоге способствует более глубокому пониманию литературы.

Ключевые слова: Редкий талант, литературно-критическая деятельность, отважный хранитель литературы, весомые труды и исследования, писательская память, критерии эстетического мышления, высшая цель поэзии, схематизм и шаблонность.

Adabiy san‘atning shakllanishi va takomillashuvida tanqid hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tanqidiy baholar, hoh rasmiy sharhlar, hoh ilmiy tahlillar, hoh tasodifiy munozaralar adabiy asarlarning kuchli va zaif tomonlari haqida bebaho ma‘lumotlar beradi. Tanqidning adabiy san‘at rivojидаги ахамиятига чукурроқ кириб борар еканмиз, унинг адабиёт тараqqiyoti va qadrlanishiga bo‘lgan чукур та’sirini o‘rganishimiz mumkin. Abdulla Qahhor yozuvchisi sifatida o‘zbek tilini nozik his etuvchi va uning boy imkoniyatlardan mahorat bilan foydalanuvchi qalamkash edi. U o‘zining nasriy asarlarida ham, komediyalarida ham tildan foydalanish va ona tilining cheksiz imkoniyatlarini namoyish etishning ajoyib namunalarini berdi va o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiy tilining kamol topishiga ulkan hissa qo‘shdi. Abdulla Qahhorning adabiy va publisistik faoliyati og‘ir davrga to‘g‘ri keldi – qat‘iy senzura zulmi, ijod erkinligi yo‘qligi. Ammo, shunga qaramay, u qattiq va samarali ishlashga muvaffaq bo‘ldi. Barcha asrlarda badiy-estetik tafakkur rivojida adabiy tanqid – “Ilmi naqd” ning muhim o‘rni va ahamiyatini e’tirof etiladi. Navoiy, Tolstoy va Gorkiy, Oybek va Abdulla Qahhor, Shayxzoda va Simonov kabi Nodir iste’dod sohiblari badiyi ijjodda beqiyos yuksaklikka erishish bilan birga tanqid va adabiyotshunoslik rivojiga ham ulkan hissa qo‘sishgan buyuk ijodkorlardir. Belinskiy “tanqid haqida nutq” maqolalarida ta‘kidlaganidek, adabiyot va tanqid doimo bir-biri bilan qo‘l ushlashib boradi va bir maqsadga xizmat qiladi. [3] Navoiy an‘analarini davom ettirgan Qahhorning adabiy-tanqidiy faoliyati ham ezgu maqsadlarga qaratilgan. Qahhorning barcha adabiy-tanqidiy maqola va taqrizlarida milliylikka va so‘z san‘atiga alohida e’tibor qaratilganligi ham ibratli jihatlardan biri hisoblanadi.

Agarda Abdulla Qahhor hikoyalarining matniga shu nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, favqulodda o‘xshatishlar juda ko‘plab topiladi. U o‘xshatishlarning bu turi o‘zining ta’sirchanligi va yorqinligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda originallik, obrazlilik, ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar o‘zlarining jozibadorligi, yorqinligi, emosionalligi, favqulodda faktlari bilan xar kanday o‘quvchini hayratlantiradi, o‘ylantiradi. Chunonchi, “Ko‘r ko‘zning ochilishi” hikoyasidan parcha: “Ikki og‘iz haqiqatni sizlarga yetkazish uchun go‘shtimni tanimdan randa bilan shilib tashlansa, suyaklarimni ming bir chigirkidan o‘tkazsa xam mening orqamda qolganlar sevinadi”[6] Qahhorning tanqidchilik faoliyati o‘zining mazmundor ko‘lami, rang-barang shakli bilan o‘zining ijodi kabi ibratlidir. Adabiyotimizning Abdulla Qahhor e’tiboridan chetda qolgan biror jiddiy muammo, voqeа-hodisasi yo‘q desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. “Yozuvchining vazifasi -

yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimoni bo‘lish bilan birga adabiyotni har qanday balo-qazodan qo‘riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni bo‘lish ham uning vazifasiga kiradi”. Bu - munaqqid ijodining muhim asosi. Abdulla Qahhor tanqidchilikning xilma-xil janrlarida faol qalam tebratdi. Uning bu sohadagi me’rosi orasida yuksak saviyada yozilgan o‘nlab maqolalar, hozirgacha ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan taqrizlar, adabiyotimizning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan nutq va subatlar, shuningdek, xat-yozishmalar va mushoxadalar xazinasi bo‘lgan yon daftarlarini ham o‘z ichiga oladi. “Sarob”, “Nutq” va “Quyushqon” singari asarlari adibning adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishda ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunosligimizda Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan , ijodini bosqichma-bosqich takomillashtirish, badiiy mahorat kabi jihatlarni qamrab olgan keng ko‘lamli taqdiqotlar mavjud. So‘nggi yillarda Abdulla Qahhor tavalludining 80 va 100 yilligi munosabati bilan salmoqli asarlar yuzaga keldi. Jumladan, M.Qushjonov, O.Sharafiddinovning ko‘p yllik ijodiy izlanishlari samarasini ularoq “Abdulla Qaxxon maxoroti” va “Abdulla Qahhor” asarlari (1988) va bir guruh mualliflarning rus tilidagi “Abdulla Qahhor va uning badiiy olami” (1989) nomli monografiya. Bularidan tashqari yozuvchi zamondoshlarining “Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida” (1987) to‘plami, taniqli tarjimon tanqidchimizning umr yo‘ldoshi Kibriyo Qahhorovaning qayta nashr etilgan “Chorak asr hamnafas” (2007) risolasi xam Abdulla Qahhor hayoti va ijodini hamda adib shahsi va mashhur asarlarining ijodiy tarixini o‘rganish bobida muhim manba vazifasini o‘taydi.

Ayniqsa, atoqli adib va yirik adabiyotshunoslari jamlangan “Adabiyotimiz faxri” (2007) va adib arxivi qo‘lyozmalari asosida tayyorlangan “Abdulla Qahhor: shaxs va ijodkor” (2013) to‘plamlar va M.Qo‘chqorovaning “Abdulla Qahhor istiqlol adabiyotshunoslari ko‘zgusida” (2018) asari bu sohada izlanishlar samarali bo‘layotganidan guvohlik beradi. [8] Akademik B.Nazarovning yangi talqin va yondashuvlarga asoslangan “Abdulla Qahhor badiiy haqiqati” maqolasidagi fikrlari e’tiborga loyiq: “Qahhor ijodini yanada chuqurroq, teran, ayniqsa, jahon adabiyoti kontekstida va mahorat sir-asrorlari negizida mustaqillik davrinining erkin xolis mezonlari asosida o‘rganish va tadqiq etishning yangi ikkinchi bosqichi boshlanmoqda. Qahhor iste’dodi qadratinning rang-barang qirralarini uning o‘ziga munosib ravishda keng va atroflicha ochish masalasida biz, tanqidchilar adib hotirasini oldida doimo qarzdormiz”.

Adib ijodiga yangicha yondashuv samarali bo‘layotgani va bir qator asarlar badiiylikning yuksak mezonlari asosida chuqur tahlil etilayotganligiga biringa hikoyasi talqini misolida ishonch hosil qilish mumkin. Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning ta’kidlashicha, yirik adabiyotshunoslari tomonidan 1970-yillar hikoyalari ichida eng yaxshisi sifatida e’tirof etilgan “Daxshat” (1960) qissasi nafaqat 1970-yillarni, balki burilish davrini ham o‘zida aks ettirgan teran asardir.[4] yozuvchi hayoti va shu davrdagi ruhi: “XX asr o‘zbek adabiyoti haqidami, milliy nasrimiz taraqqiyoti haqidami, hikoya janri yoki hunarmandchilik masalalari haqidami, jiddiy nazar tashlasangiz, siri “Daxshat” albatta tilga olinadi va turli talqinlarga bardosh bera oglani va yo‘l qo‘ygani ilhom bilan yozilganadir”

Abdulla Qahhor adabiyot rivoji yo‘lida beg‘araz xizmat qilishi, ayniqsa, yosh shoir va yozuvchilarga ijodning katta yo‘liga tushib olishida xayriyohlik bilan yordam berishiga katta umid bildiradi. Qahhor iste’dodli munaqqidlarni quvvatlab, ularni adabiyotimiz rivoji yo‘lida faol, xolis va jonkuyar bo‘lishga rag‘batlantiradi. Misol uchun adibning O.Sharafiddinov iste’dodi haqida 50 yillar avval aytgan bashoratomuz fikrini keltirish mumkin: “Ozod Sharafiddinov adabiy tanqidchilikka yonib kirdi va xozirgacha u mana shu fazilatni saqlab qoldi. Unda haqiqat ruhi, demokratik ruh, erkinlik ruhi kuchli.” [1]

Shu bilan birga Qahhor ijodining muhim tarmog‘i bo‘lgan adabiy-tanqidiy faoliyati yetarli darajada o‘rganilmagan. Adibning adabiy-tanqidiy me’rosini o‘rganish – nafaqat ulkan ijodkor siyoshi va uning badiiy-estetik olamini to‘la tasavvur etishga yordam beradi, balki XX asr o‘zbek adabiyoti, tanqidchilik va adabiy-estetik tafakkur tarixi, tadrijiy taraqqiyot yo‘li va omillarini ham kengroq o‘rganishga imkon beradi. Qahhorning taqriz-maqolalari bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etishi bejiz emas. Ustozning Said Axmad, Ma’rufning ilk asarlarini haqidagi taqriz va maqolalari U.O’Ijaboev, B.Karimov kabi adabiyotshunoslari ta’kidlaganidek, adabiy tanqidning yetuk namunalari bo‘lishi bilan yosh adiblarga ijod sirlarini anglatib, adabiyotimiz ravnaqi yo‘lida ta’sirchan omil bo‘lib kelmoqda[7]. Ular “yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatni bo‘lgan inson ruhiyatini chuqur yoritish, badiiy til va tasvir, janr hususiyatlari” kabi jahon adabiyotshunoslaring asosiy adabiy-nazariy muammolarigacha qamrab olganligi bilan ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmay keladi.

Qahhor, eng avvalo, adabiyotimiz va tanqidimizni jahon estetik tafakkur mezonlari asosida rivojlantirish, iste’dodli ijodkorlar, talabchan tanqidchilar qatorida turishga intiladi. Ayni vaqtida, istedodli tanqidchi va adabiyotshunoslari e’tiborini ham adabiy jarayon va so‘z sam‘atining dolzarb muammolarini hal etishga yo‘naltirishda vakolatli shaxsga aylandi. Shu munosabat bilan adabiyot va tanqidchiligidan tarixining ayrim muhim voqe‘a-hodisalaridan bugungi kun uchun zarur saboqlar chiqarish ham o‘rinli bo‘ladi. Abdulla Qahhor yetuk munaqqid sifatidagi ibratlari faoliyati, ulkan iste’dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy-estetik tafakkur olamini boyitish va rivojlantirishda qanchalik muhim o‘rin tutishi, adabiy jarayon va tanqidchilik saviyasiga ijodiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini namoyon eta oldi. “Adabiy tanqid asarga xalq manfaatlari, xalq talablari nuqtai nazaridan baho beradi, buning uchun asarni mazmun jihatidan xam, shakl jihatidan xam chuqur tahlil qilib, fazilat va nuqsonlarini oolib beradi. Tanqid adabiyotni olg‘a suradigan kuch bo‘lishi bilan yoshlar uchun maktab vazifasini o‘taydi. Afsuski, yoshlarimiz ana shu katta maktabdan mahrum deyish mumkin.”

Abdulla Qahhorning bunday ibratomuz nutqlari, turli yillari yozilgan taqriz va maqolalaridan uning adabiy tanqidchilikka qanchalik ma‘suliyat bilan munosabatda bo‘lganligini tasavvur qilish mumkin. Darhaqiqat, Abdulla Qahhor ijodi va shaxsini chuqur o‘rgangan va uni zukko ustoz deb bilgan O.Sharafiddinov ta’kidlaganidek, adib tanqidchilikni adabiyotga va yozuvchilarga madad beruvchi qadratlari kuch deb bilgan. Ayni vaqtida, tanqidchining yozuvchiga, uning iste’dodiga bo‘lgan samimiyy munosabati Qahhor uchun juda muhim edi. Ya’ni tanqidchi yozuvchiga va uning ijodiga go‘yo “tajriba qilinayotgan quyonday qaramasligi” kerak.[2] Abdulla Qahhorni tashvishlantirgan yana bir muammo-bu tanqidchilarda tahlil san‘ati, adabiy asarning o‘zidan kelib chiqib fikr yuritish mahorati etishmasligidir. Adabiy jarayonni chuqur tushunolmaslik va tahlil eta olmaslik oqibatida ayrim tanqidchilar asarga adib g‘oyaviy-badiiy niyati va ijod qonuniyatlarini asosida emas, sxematizm va qolipbozlik talablari bilan yondashadi. 30-40 yillarda keng tus olgan bunday illatlari tandiqlik va adabiyot rivojiga ham katta to‘siq bo‘lgani ayon edi.

Qahhor ham insonni har tomonlama, to‘laqonli va jonli qilib tasvirlash adabiyotning oliy maqsadi ekanligini qayta-qayta ta’kidlagan: “Men mutlaqo aminmanki, inson qanday bo‘lishi kerak, qanday bo‘imasligi lozim ekanini, yozuvchi qalbini chuqur joylarigacha ko‘rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun pala-partish, lekin ustaroq so‘zlar bilan yozilgan “silliq” asardon ko‘p darajada foydaliroqdir.” [5]

- Abdulla Qahhorning vatandoshi ekanligimizdan faxrlanamiz, - deydi jurnalist va tarixchi Sulaymonqul Azimov. - Uning durdonalarini o‘zbek tilida yozgani bizni faqat quvontiradi. Zero, ikki tillilik xalqlarimiz vakillari uchun odatiy hodisadir. Bizga

ma'lumki, Markaziy Osiyoda ikki tilda: tojik va o'zbek tillarida ijod qilgan shoir va yozuvchilar ko'p bo'lgan - Alisher Navoiy, Nodirabegim(Maknuna), Sadriddin Ayniy ...

ADABIYOTLAR

1. 1.Salaev, K. B. Abdulla Qahhor — talantliviy rasskazchik / K. B. Salaev. — Tekst : neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2017. — № 3 (137).
2. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: An'anaviylik, vorisiylik, o'ziga xoslik. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog'ay Murod Iodi misolida ./ Qosimov Usmon/108bet
3. Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida./2019/32b
4. Abdulla Kaxxor xikoyalarining xususiyatlari T.Almamatov/2018 29bet
5. A.Qahhor. Tanlangan asarlar (2-jild) Otobek Jo'raboев 125bet
6. O'zbek adabiy tanqidi tarixi/Baxtiyor Nazarov, Shoira Axmedova, Kurdosh Qahramonov.-2015/89-bet.
7. Adabiyot nazariyasi/Umurov X. 2002
8. Adabiy tanqid va ijodiy jarayon Qayumov L. //Sharq yulduzi 2002
9. https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2007/09/070916_abdulla_kahhar
10. https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/abdulla_qahhor